XALQ DEPUTATLARI OLOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-5-023-2-31-K/24 Olot tumani

Olot tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga va Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Buxoro viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-026-2-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 27-dekabrdagi 01/06/20-12-38/2229-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Olot tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Olot tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **107520,5 mln.so‘m** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **107520,5 mln.so‘mga** tasdiqlanganligi, shuningdek Olot tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori **1011,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Olot tumani budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga muvofiq** hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga muvofiq**, shuningdek Olot tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meyorlari **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

4. Olot tumani mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1515,6 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Olot tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Yangiyev, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Davronov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Olot tumani Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi M.Beshimova hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Yangiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi NEMATOVA NARGIZA ISAMIDDINOVNA

Xalq deputatlari Olot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-023-2-31-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Olot tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent rejasi	Mahalliy reja
1	Foyda solig‘i		
2	Aylanmadan olinadigan soliq	6 934 000,0	6 934 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5 216 000,0	38 585 180,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 142 000,0	1 142 000,0
5	Aksiz solig‘i jami		
-	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		
-	pivo		
-	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	374 000,0	3 014 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	6 157 000,0	6 157 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	600 000,0	28 176 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 657 339,0	19 657 339,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	181 000,0	3 752 000,0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar		
13	Davlat boji		
14	Yig‘imlar		
15	Jarimalar		
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	103 000,0	103 000,0
JAMI		**40 364 339,0**	**107 520 519,0**

Xalq deputatlari Olot tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-023-2-31-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Olot tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**107 520 519**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*23 165 317*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*2 046 358*
2	Tibbiyot birlashmasi	*0*
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0*
3	Madaniyat bo‘limi	*4 282 103*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4 733 000*
5	Sport bo‘limi	*8 790 384*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 947 000*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 970 392*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*1 949 891*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 249 000*
10	Davlat soliq inspekciyasi	*0*
11	Hokimyat	*36 806 913*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*106 000*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*11 550*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*24 152 765*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 341 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 515 598*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 101 449*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*225 000*
	Axborot-kutubxona markazlari	*876 449*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	*18 525 070*

14	Boshqa tashkilotlar	*0*

Xalq deputatlari Olot tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-5-023-2-31-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Olot tumani mahalliy budjetiga 2025-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma meyorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy budjet nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	**Olot tumani**	0%	79%	100%	21%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%

№	Mahalliy budjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar								
1	**Olot tumani**	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%